

## **Muxbir Daliyev Telegram kanalida e'lon qilingan “Prezident maktablari agentligi va yuzlab o'qituvchilar o'rtasidagi mojaro haqida” nomli maqolaga munosabat**

Prezident ta'lim muassasalari agentligi, murojaatda yozilgan ushbu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmasligini ma'lum qiladi.

Buxoro viloyati Jondor tumanida yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktabga ishga kirish maqsadida 17 nafar tarix fani o'qituvchisi hujjat topshirgan. Ulardan, 2 nafari 49-IDUM tarix fani o'qituvchilari bo'lib hisoblanadi.

17 nafar o'qituvchining 10 nafari test sinovlaridan 70 va undan yuqori ball olib, suhbat bosqichiga o'tgan. Shulardan 2 nafari 49-IDUM o'qituvchilari.

Suhbat jarayoni natijalariga ko'ra, testdan eng yuqori ball olgan 3 nafar o'qituvchi ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qituvchi sifatida faoliyat olib borish uchun tavsiya etilgan. Shulardan 1 nafari 49-IDUM tarix fani o'qituvchisi.

Shuni alohida qayd etamizki, “Ochiq muloqot”da Facebook va botga kelib tushgan murojaatlarni umumlashtirib javob berildi.

Apellyatsiya tartibiga ko'ra murojaat etmoqchi bo'lganlar uchun elektron pochta [murojaat@piima.uz](mailto:murojaat@piima.uz) e'lon qilindi.

Jondor tumani, jumladan, ushbu maktabdan apellyatsiya tartibida ko'rib chiqish bo'yicha murojaat kelib tushmaganini ma'lum qilamiz.

Hurmatli pedagoglar, tanlov natijalari yuzasidan e'tirozingiz bo'lsa, Prezident ta'lim muassasalari agentligining [murojaat@piima.uz](mailto:murojaat@piima.uz) elektron pochtasiga murojaat yo'llashingiz mumkinligini yana bir bor eslatib o'tamiz.